



## VIRTUAL OLAM VA UNING JAMIYAT HAYOTIGA TA'SIRI

**Tursunbekov Xurshidbek**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, Maktab  
menejmenti yo'nalishi*

*3-bosqich talabasi*

**Saidova Hilolaxon,**

*Qo'qon davlat pedagogika institute Maktab  
menejmenti kafedrasi o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp145-149>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola texnika taraqqiyoti asrida inson hayotiga kirib kelgan virtual olam, uning jamiyatga ta'siri, o'smir yoshlarning ongiga olib kirgan salbiy illatlari hamda uni bartaraf etish istiqbollari haqidadir.

**Kalit so'zlar:** virtual olam, texnokratik, IT, in'ikos, ekzistensial, umumplanetar ong, aksiologiya, aksiosfera, dominant, kinematograf.

Bugun insoniyat fan-texnika taraqqiyoti eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davrida yashayotganligi bilan ham faxrlanadi, ham sarosimaga tushadi. Garchi insoniyat ushbu voqelikka ulkan aql-idrok va salohiyat orqali erishgan bo'lsa-da, ulardagi moddiylik xususiyati birlamchi mohiyatga ega bo'lgani uchun bugun bir qancha muammolarni yuzaga chiqara boshladi. Shu ma'noda, bugun insoniyat ushbu sohada vujudga kelgan salbiy holatni yumshatish uchun "insoniylik" mezonlariga asoslangan yangicha texnokratik qadriyatlar tizimini ishlab chiqishi zarur.

Bizningcha, an'anaviy jamiyatlardagi barqarorlik omili fan-texnika yutuqlari bilan ijtimoiy xulq-atvor muvozanatiga erishilganidir. Zamonaviy jamiyatlarda esa IT rivoji jamiyat moddiy taraqqiyotiga xizmat qilib, ma'naviy munosabatlarni o'z soyasida qoldirmoqda. Xususan, Yevropadagi ilk sanoat to'ntarish inqilobi ushbu voqelik uchun zarur bo'lgan an'anaviy qadriyatlarni siqib chiqardi. Masalan, dastlab texnikaning rivojlanishi qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish sanoatini inqirozga olib keldi, bu esa ushbu sohada band aholining qashshoqlashuviga, hatto voqelikka nisbatan keskin noroziliklariga sabab bo'ldi (Ludchilar harakatini eslang!). Bu jarayon bugungi kunga kelib birmuncha jiddiy tus oldi. "O'tgan asrning 80-90 yillarida AQSh po'lat eritish kompaniyalarida, ishlab chiqarish ko'lamini o'zgarmagani holda, ishchilar soni olti barobar, "Jeneral Elektrik" kompaniyasida uch barobar kamaygan" bo'lsa, bugungi kunga kelib, umumjahon moliyaviy krizisi tufayli bu raqamlarning kundan kunga oshayotgani zamonaviy jamiyatlardagi texnika taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotdan uzoqlashuviga, aniqrog'i, fan-texnika rivoji odamzodni saodatga emas, balki manfaatlar yo'lida o'zaro muxolif tomonlar shakllanishiga xizmat qilmoqda. To'g'ri, ijtimoiy farovonlikka erishish uchun fan-texnika rivoji suv va havodek zarur. Lekin bunday ko'rinishdagi taraqqiyotning ma'naviy va atrof-muhitga salbiy ta'sirini hech ham oqlab bo'lmaydi.

Texnokratik qadriyatlarni shakllantirish uchun, avvalo, uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan virtual (lot. virtualis – mumkin bo'lgan, muayyan shart-sharoitlarda namoyon bo'lishi mumkin yoki zarur) borliqni o'rganish hamda uning insoniyat ongi va qalbiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini tadqiq etish zarurdir.

“Virtual borliq” atamasini ilk bor o'tgan asrning 70-yillarida Massachusetts texnologiya instituti xodimi Jeron Lener ishlatgan bo'lsa-da, “muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra, tabiiy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar”.

Bugungi kunda turli ko'rinishdagi axborotlarni uzatishga moslangan texnologiyalarning ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalariga shiddat bilan kirib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Qadriyatlarning makon bilan bog'liq xususiyatlari IT ta'sirida yo'qolib bormoqda, bu esa etnik birlik madaniyatlarining universallashtirishiga, an'anaviy qadriyatlari va namunali ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining zaiflashuviga sabab bo'lmoqda.

San'at, fan va ijtimoiy hayotning tegishli sohalariga texnologiya ta'siri natijasida butunlay o'zgacha dunyo virtual olam vujudga keldi. Bu olamdagi narsa va hodisalar rivoji o'ziga xos tarzda virtual tafakkurdagi insonlar jamoasini hamda qadriyatlarini shakllantiradi. Inson qachonki o'zini virtual olamning ajralmas qismi sifatida his eta boshlasa, undagi narsa va hodisalar qadriyatga aylana boradi. Bizningcha, virtual olam tushunchasining tadqiqotimiz maqsadiga yaqinroq tahlili – moddiy ko'rinishdagi narsa va hodisalarni kompyuter grafikasi vositasida bo'rttirib, xayoliy qayta shakllantirish yoki obyektiv borliqni subyektivlashtirishdir. Virtual olam ham tabiiy olam singari makon, vaqt, mavjudlik, yo'qlik kabi qonuniyatlarga ega. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, u real olamni o'z imkoniyatlari doirasida tasavvur etishi, o'zgartirishi, oq yoki qora rangda tasvirlashi mumkin, ya'ni u haqiqiy mustaqillikka ega. Ayni paytda “barcha boshqa realliklar bilan ulardan ontologik jihatdan mustaqil bo'la turib o'zaro munosabatda bo'lishi mumkin, aktual, ya'ni uni tug'diruvchi reallik faol bo'lgunga qadar mavjud bo'ladi”. Virtual olamda ehtimollik, ideallik, loyihalashtirish, insoniy yoki hayvoniy qiyofa tanlash erkinligi, takrorlash, taqlid kabi barcha imkoniyatlar subyektning ixtiyorida bo'ladi. Bu yerda real olamdagi barcha narsa va hodisalar faqat in'ikos etadi. Bu olam “tasvirlar dunyosi”dir.

Virtual olam ijodkori va yaratuvchisi, shubhasiz, inson va uning tafakkuridir. Inson bu jarayonda real voqelikka qaraganda birmuncha erkin va keng imkoniyatlarga egadir. Virtual voqelikda inson faoliyatiga to'siq bo'luvchi omillarning yo'qligi inson ongida mavjud bo'lgan salbiy holatlarni erkin amalga oshirishga imkon beradi. Bu voqelikda aloqa imkoniyatlarining o'sishi individning jamiyatdan ajralib qolishiga, ijtimoiy taraqqiyotdagi bo'hronlar esa noinsoniy mayllarning rivojiga olib keladi. Bu olamda inson kundalik hayotida amalga oshira olmaydigan katta imkoniyatlarga ega bo'lib, bu unga har qanday ko'rinishdagi tasavvurlarini moddiylashtirish uchun sharoit yaratadi. Subyektiv mazmundagi yangi qadriyatlar paydo bo'ladi, ular bu olam uchun ahamiyatli, eng muhimi, ularni amalga oshirish mumkin. Inson bu olam ichiga kirib borgani sari dunyoqarashi, turmush tarzi, qiziqishlari o'zgarib o'ziga xos qadriyatlar tizimi shakllanadi va ular inson ma'naviy ongini yuksaltiradi yoki zaiflashtiradi.

Aloqa vositalarining takomillashuvi hosilasi sifatida net-o'yinlari paydo bo'ldi. Internet makoni darvozasi keng ochilgan, u ma'naviy qadriyatlar dunyosini shid-

dat bilan o'zgartirib, qayta qurmoqda, insonning virtual olamga kirib borishi o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, masofali muloqot orqali o'z "men"ini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojini to'laligicha qondirishga yordam beradi. Albatta, virtual olamdagi voqelik real olamdan qiziqroq va afzaldir. Bugun ushbu hodisa aksariyat odamlar uchun muammo va tashvishlarga to'la haqiqiy olamdan voz kechtirish (vaqtincha) omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Virtual olamda inson faoliyati chegaralari keng bo'lib, dunyo jiddiy to'siq sifatida yo'q bo'ladi, chunki bu olamda hammasini yangidan boshlash, ya'ni bemalol "xato" qilish mumkin bo'lib, o'z faoliyati oqibati uchun hech kim yoki hech narsa oldida javobgar bo'lmaydi.

Virtual olamda shakllangan qadriyatlar tizimi inson turmush tarzi va faoliyatiga salbiy ta'sirlari esa quyidagilarda ko'rinadi:

*Birinchidan*, real olamdagi eng oliy qadriyat sanalmish inson hayoti bu olamda umuman qadr-qimmatga ega emas. Chunki oddiygina "qayta yuklash" imkoniyati virtual olamning o'ziga xosligini tushunish uchun yetarli. Inson hayoti qadrsizlanishining oliy ko'rinishi 2016-2017-yillarda ommalashgan "ko'k kit" internet o'yinida namoyon bo'ladi. Yoshlar ongiga psixologik hujum qilish orqali ularni tashqi olamdan uzish, virtual olamning dahshatlarini ommalashtirish ushbu o'yinning asosiy maqsadi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'yinga kirish uchun o'yin ma'murlari, eng avvalo, 18 yoshga to'lganlik yoki to'lmaganlik haqida ma'lumot so'raydi. Bundan ko'rinib turibdiki, moderatorlar yoshlarning ongi va ma'naviy dunyosi endi rivojlanib kelayotganidan g'araz maqsadlarida foydalanishni niyat qilgan. O'yin ishtirokchilariga elikka yaqin hayot uchun xatarli topshiriqlar beriladi. Ular qatorida tana a'zosining biror qismiga "Ko'k kit" ("Siniy kit") degan yozuvni tilib yozish yoki yurib ketayotgan mashina oldidan yugurib o'tish kabi inson hayoti uchun xavfli ishlarni ko'rsatish mumkin. O'yin xatarli ekanligini anglab, undan voz kechmoqchi bo'lgan o'smirlar psixologik hujum boshlanadi, ma'lumotlar bazasidagi axborotlardan foydalanib, "Sen mana bu manzilda yashaysan, o'yin shartlarini yakunlamasang, yaqinlaringni o'ldiramiz", degan iskanjaga olinadi. Oxiroqibat, o'yinning sharti bo'yicha o'z joniga qasd qilish bilan o'smirning hayotiga nuqta qo'yiladi. Inson qadr-qimmati oddiy virtual o'yin ta'sirida yakun topadi.

*Ikkinchidan*, ushbu olam "asiri"ga aylangan inson ongida voqelik zerikarli va rangsiz ko'rinadi va ekzistensial muammolar yechimini xayollar dunyosidan izlaydi, shuningdek, giyohvandlikning "kimyoviy bo'lmagan" ko'rinishiga tobe bo'ladi.

*Uchinchidan*, muayyan o'yin qahramoniga, boshqaruvchisiga aylangan shaxs ma'naviy qiyofasi bir necha "qatlamlarga ajralishi" mumkin, ya'ni bir shaxs o'yin davomida xohlagan jins, yosh, e'tiqod yoki guruh ko'rinishida mavjud bo'la oladi. Ma'lum ma'noda, ushbu fikrlar biz yashab turgan olamga ham tegishli bo'lib, inson o'z hayoti va faoliyati davomida bir necha qiyofada (masalan, oilada hukmron erkak, ish joyida tobe xodim) namoyon bo'lishga majbur bo'ladi.

Bu jarayonda "men" va "virtual men" kategoriyalari qanday o'zaro ta'sirga kirishadi? Bizningcha, voqelik bilan aloqaning uzilishi natijasida ontogenezda qadriyatlarga asoslangan munosabatlar asosiy belgilarining bir yoshdan boshqasiga siljishi sodir bo'ladi. Bu qadriyatlardagi vorisiylik tamoyilining buzilishi va inson hayotida qadriyatli nomutanosiblikni yuzaga keltiradi, chunki "o'yin qadriyati maktabgacha bolalarning qadriyatlar ierarxiyasining dominantasi bo'lib xizmat qiladi. Katta yoshdagi bolalar va kattalarda qadriyatlar ierarxiyasiga boshqa dominant - qadriyatlarga asoslangan o'zlikni anglash, o'z hayoti ma'nosini mustaqil tarzda aniqlashga

intilish xosdir”. Ayniqsa, virtual olam ko‘rinishlari endi o‘tib kelayotgan bolalar ruhiy dunyosiga birmuncha salbiy ta‘sir etadi, “oqilona, mantiqiy narsalar va hodisalar olamiga bolaning erta kirishi uni emotsiyalardan, boshqalarga nisbatan hamdardlik hissidan mahrum etishi mumkin. Kattalar bilan normal aloqa qilmaslik natijasida bolalarda aqliy qoloqlik alomatlari tobora ko‘p kuzatilmoqda”.

Virtual olam o‘z “asir”iga boshqalarga tobe bo‘lmasdan huzur-halovatda yashash, o‘zini turli xil yo‘llar bilan doimo xursand qilib yurish imkoniyatini beradi. Bu “erkinlik” to‘laqonli muloqot qilish imkoniyatini yo‘qotishga olib keladi, “axborot uzatish” bundan mustasno. Virtual dunyo asiriga tushish turli ijtimoiy nizolarga, qadriyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Insoniyatning virtual olam ta‘sirida “bir o‘lchovli odam”lar jamiyatiga aylanib qolish xavfi haqida o‘tgan asrning 60-yillaridayoq G.Markuze ogohlantirgan edi.

Bugun yoshlar orasida internet va uyali telefonning ommaviylashib ketayotganligini inobatga olsak, jamiyat ma‘naviy muhitini barqaror saqlashga ehtiyoj ortib borayotganligi namoyon bo‘ladi. Bizningcha, jamiyat ma‘naviy muhitining buzilishida zamonaviy axborot vositalarini “aybdor” sifatida ko‘rsatish to‘g‘rimi? Balki aybni hissiz, jonsiz kompyuterlarga emas, millatimiz axloqi, turmush tarzi, mentaliteti, an‘ana va qadriyatlariga zid bo‘lgan turli shakldagi ma‘lumotlarni yuklayotgan “zamonamiz qahramon”lariga qo‘ysak, adolatdan bo‘lar! Bu masalani X.Lenk quyidagicha izohlaydi: “Kompyuterlar ijtimoiy, ma‘naviy mavjudot emas, ular biror-bir ongli jarayonni amalga oshirmaydi. Shu bois axborot tizimlari ma‘naviy javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi mumkin emas. Qabul qilingan qarorlar uchun ma‘naviy javobgarlikni kompyuterlar zimmasiga yuklashga urinish muayyan odamlar yoki odamlar guruhining javobgarlikdan bo‘yin tovlashga urinishidan boshqa narsa emas, bunday javobgarlikni mashinaga yuklab bo‘lmaydi”.

Yangi axborot makoni umumplanetar ongda chuqur aksiologik o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda. Insoniyat shu kungacha e‘zozlab, qadrlab kelgan an‘ana va urf-odatlar virtual olam qadriyatlari oldida ko‘p holatlarda ojiz qolmoqda. Xususan, virtual makonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimi insoniyat tomonidan yuqori tezlikda qabul qilinibgina qolmasdan, balki haqiqiy olamga ma‘naviy hayot bag‘ishlab turgan an‘anaviy qadriyatlarga qarshi kurash usuliga aylanib, oila, umumli faoliyat (ish), ijtimoiy mas‘uliyat, jamoaviylikdan uzoqlashishga olib kelmoqda. “Bizning kelajagimiz, agar u bor bo‘lsa, bugungi texnologik jarayonlarga munosabatimizga bog‘liq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog‘liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan “post-insoniyat” jamiyatiga o‘tish dinamikasini yaxshi anglab yetishimiz darkor. Ayniqsa, tuzoq qayerda joylashganini, muqarrar o‘limga olib borishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni payqay bilishimiz zarur”. Shuningdek, “... yoshlarda internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish” masalasi 2017-yil 28-iyuldagi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 3160-sonli Qarorida keltirib o‘tildi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy rivojlanish jarayonida qadriyatlar o‘zgaradi, mukammallashadi. O‘tmishda insoniyat uchun qadrli bo‘lgan narsa va hodisalar bugun qadriyat bo‘lmasligi mumkin, kelajakda esa yangi qadriyatlar paydo bo‘lishi bilan bir qatorda o‘tmishdagi qadriyatlarga “qaytish” mumkin. Bugun aksiologiya sohasi o‘z rivojining yangi bosqichida turibdi. Katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan axborot

va aloqa texnologiyalari hozirda nafaqat insoniyatning o'zaro yaqinlashuvini tezlashtirmoqda, balki qadriyatlar tizimi modernizatsiyasiga sharoit yaratmoqda. Bu jarayonlar tadqiqi quyidagicha xulosa beradi: insoniyat – ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va eng yangi axborot inqilobi ko'rinishida – hozirgi zamon aksiosferasi doirasida yangi qadriyatlarning vujudga kelishini kuzatmoqda. Jamiyat uchun eng yaxshisi – qadriyatlarning yangilanish bosqichini chuqur tahlil qilgan holda foydali va ijobiy tomonlarini hayotga tatbiq etish. Jarayonni tahlil qilish va idrok etish uchun keng dunyoqarash hamda ozuqaviy ma'naviyat zarur. Aytaylik, yaqin yillarda hayotimizga kirib kelishi kutilayotgan sun'iy intellektga munosabatimiz qanday bo'ladi, tasavvur qilish qiyin, lekin biz muhokama qilib turgan virtual olam tushunchasi 15-16 yillar oldin tasavvurimizda mavjud bo'lmagan edi. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".

Bir so'z bilan aytganda, shiddatli taraqqiyot davrida zamon tahlikalarini tog'ri qabul qila oladigan ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga urg'u berish jamiyatning ustuvor maqsad va yo'nalishlaridan biri hisoblanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3160-sonli Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori 2017-yil, 28-iyul.
  2. Bahodir Zokir GlobalIshuv ziddiyatlari. "Tafakkur",2000-yil 35-bet.
  3. Mavluda Yoqubova Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning globallashuvi. T.: NISHON-NOSHIR.
  4. Михайлов А.Н. Диагностика виртуальной образности [Текст] А.Н. Михайлов, Н.А. Носов. М.: 2008. – С. 8.
  5. Каган М.С. Философская теория ценностей [Текст] / М.С. Каган. – СПб.; ТОО ТК «Петрополис», 2007. – стр. 153.
  6. Mavluda Yoqubova Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning globallashuvi. T.:NISHON-NOSHIR,
  7. Маркузе Г. Техногенная цивилизация. – М.: Элигия, 1998. – С. 45.
  8. Х. Ленк. Размышления о современной технике. – М., 1996. – С. 141.
- Ник Бостром Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute. Угрозы существованию человечества. Анализ сценариев вымирания. // 2007. <http://www.nickbostrom.com>.